

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

ESTRADA SAN'ATINING RIVOJLANISHIDA SIFATLI TA'LIM MEZONLARI

Isroilxo'jayev Abduboriy

O'zDK huzuridagi B.Zokirov MESI

«Musiqiy nazariy va tarixiy fanlar» kafedrasi Bakalavriat 1 kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Amanova N.A.

dostent, doktor PhD

«Ushbu sohada boshlagan Islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta'lim dargohlariga borib, o'qituvchi va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, sifatni oshirish bo'yicha ular qo'ygan masalalarni birgalikda haal qilishimiz kerak»

SH.M.Mirziyoyev.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2023-yilni “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili” deb e'lon qildilar. Buyuk shoir Yusuf Hos Xojib aytganlaridek: “Qayerda ilm bo'lsa, shu yerda buyuklik bo'lur; Ilmga ega bo'lib, hurmatga ham sazovor bo'lasan”. Bundan kelib chiqib, hamma e'tibor va harakatlar sifatli ta'lim yaratishga qaratilgan.

Butun Respublika bo'yicha yangi maktablar yaratilyapti, eski binolar ta'mirlanyapti, yangi o'quv binolari qurilyapti, yangi o'quv darsliklari chop etilyapti. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev shaxsan o'zlari o'quv darsliklari bilan tanishib, o'qituvchilar, direktorlar bilan ochiq suhbat o'tkazdilar. Sodir bo'layotgan o'zgarishlarni nazorat qilgan holda ta'kidlab aytdilarki: «Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg'onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun “Yangi O'zbekiston” va „Uchinchi renessans“ so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangramoqda, xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirmoqda»1

Turli davrlar olimlari tomonidan isbotlanganki, musiqa inson tanasi va ruhiyatida foydali ta'sir ko'rsatadi, aqlan rivojlanishga me'zon yaratadi. Shu bois, ta'lim sohasidagi yana bir muhim yangiliklardan biri – xar bir o'rta ta'lim o'quvchisi musiqiy xalq cholg'usini o'zlashtirishi, bolalar bog'chasida maqom navolari bilan tanishishidir. O'quvchilarni xalq cholg'usini o'zlashtirishi bu yoshlar uchun kelajakni qurish uchun yana bir imkoniyatdir. Milliy musiqiy cholg'ular ijrosi orqali yosh avlodga milliy xalq musiqasini ustivor qadriyatlar sifatida singdirish va saqlash, kelajak avlodning milliy qadriyatlari sifatida asrab avaylash ko'zda tutilgan.

O'zbekiston musiqa madaniyatida estrada janrining o'rni juda katta. Estrada janrini rivojiga katta hissa qo'shgan o'zbek kompozitorlari va aranjirovkachilar Ikrom Akbarov, Enmark Salixov,

1 Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // <https://xs.uz/uz/post>

Mutal Burxonov, Sharif Ramazonov, Yevgeniy Jivayev, Anatoliy Kroll, Xayri Ikromov va boshqalar ijodi samarasi tufayli o'zbek estrada janri o'zining betakror qiyofasiga ega bo'ldi. 70-yillarida estrada ijodiyotida xonandalik faoliyati yetakchi o'rinni egalladi va janr turlari bilan yanada boyidi. Bu davrda vokal cholg'u ansambllari – “Yalla”, “Navo”, “Sintez”, “Sado” kabilarning ijodi o'zbek estrada qo'shiqchilik san'atining rivojlanishida katta ahamiyat kasb etdi.

1980 yillariga kelib estrada janrida “milliy estrada” yo'nalishiga asos solindi. 2 Sherali Jo'rayev, G'ulomjon Yoqubov, G'iyosjon Boytoyev, Oxunjon Mamadaliyev, Muhridin Holiqov kabi an'anaviy xonandalik yo'nalishi vakillarining ijodiyoti yangi elektr cholg'ulari bilan boyitildi va yangicha janr jihatlariga ega bo'ldi.

Zamonaviy o'zbek estrada musiqasi professional san'at turi bo'lib soha ijrochilarining tayyorgaligi mahsus ta'lim tizimlarida amalga oshirilmoqda. Ular orasida yetakchi bo'lgan va professional mutaxassislar yetishtirib borayotgan bilim dargohi – bu B.Zokirov nomidagi milliy estrada institutidir. Ushbu institut tarkibida turli yo'nalishlar faoliyat olib bormoqda – estrada xonandaligi, cholg'u ijrochiligi ovoz rejissyorligi, professional ta'lim, musiqashunoslik kabi mustaxassisliklar yaqin kelajakda estrada janrining jahon standartlariga mos ravishda rivojlanishiga mezon yaratmoqda.

Estrada sohasini yangi bosqichga olib chiqish zarurati ushbu sohaning ta'lim sifatini oshirish bilan uzviy bog'liq. Alohida ta'lim muassasi sifatida faoliyat olib borayotgan milliy estrada san'ati institutining ochilishi hamda, institutga taniqli san'atkor – B.Zokirovning nomi berilishi ushbu sohaning ta'lim tizimiga qaratilgan e'tiborni ko'rsatadi. Bu borada ayrim takliflarni keltirmoqchi edik.

Moddiy-texnik bazani kengaytirishda It texnologiyalarga e'tibor qaratish, boshlang'ich va o'rta ta'lim muassasalarida soha xususiyati borasida targ'ibot ishlarni olib borish; dars jarayoniga sohada usta san'atkorlarini taklif qilish; mahoratli darslarni kengaytirish; amaliy faoliyatni taniqli san'atkorlar konsert dasturi bilan bog'lash; talabalarning estrada arboblari bilan fikr almashish, amaliy simpozium va ilmiy anjumanlar o'tkazish kabilardir.

Hulosa o'rnida aytib o'tish kerakki, ta'lim sifatini oshirish avvalam bor biz talabalarga bog'liqdir. Ustozlar izidan borish, yangi bilimlarga intilish va eng muhimi, kelajak biz yoshlarning qo'lida ekanligini anglashdir.

2 Аманова Н. Национальная специфика узбекской эстрадной музыки в контексте развития жанров.